

“QISASI RABG‘UZIY” VA MUQADDAS KITOBLARDA YUSUFNING PAYG‘AMBAR BO‘LISHIGACHA BO‘LGAN BOLALIK DAVRDAGI TALQINLAR

Tursunova Moxigul Xikmatillo qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Qisasi Rabg‘uziy” va muqaddas kitoblardagi Yusuf obrazi tahlil qilinadi. Bu bilan birgalikda mazkur asarning shakllanishi, syujet talqinlari va obrazlar tizimi ilmiy tahlil qilinadi. Rabg‘uziy ijodida Yusuf obrazining donishmand, go‘zal va sabr timsoli sifatida tasvirlangani tahlil qilinadi. Muqaddas kitoblar – Qur‘oni karim, Tavrot, Injilda Yusuf qissalaridagi adabiy qayta ishlanmalar bilan taqqoslanib, obrazlar evolutsiyasining badiiy, ma‘naviy va estetik xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Yusuf” qissasi, Qur‘oni karim, Tavrot, Injil, eng go‘zal qissa, muhabbat, tuhmat, go‘zallik timsoli

“Yusuf va Zulayho” qissasi Sharq adabiyoti, xususan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotning eng qadimiy va eng mukammal syujetlaridan biri sanaladi. Ushbu qissa nafaqat diniy manbalarda, balki xalq rivoyatlari, doston, qo‘shiqlar, masallar hamda mumtoz ijod namunalarida keng tarqalgan. Har bir adabiy qatlamda syujet o‘ziga xos talqin qilingan, obrazlar esa turlicha ruhiy holatlarda namoyon etilgan. Ushbu maqolada esa mazkur qissaning Rabg‘uziy ijodida hamda muqaddas kitoblarda qay yo‘sinda shakllangani, poetik mazmuni va badiiy – estetik xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi.

“Yusuf va Zulayho” qissasi xalq og‘zaki ijodida asosan rivoyat, afsona va qisman doston shaklida yashab kelmoqda. Mazkur qissa, dostoni sharq adabiyotida keng tarqalgan asarlar sirasiga kiradi. Asl manbai esa ilohiy muqaddas kitoblar hisoblangan - Tavrot, Injil va Qur‘oni karimdir. Qur‘ondagi talqini ixchamroq bayon etilgan, Tavrotdagisi esa folklorga va qadimiy Misr afsonalariga borib taqaladi. Sharqda keng tarqalgan qissaning bu varianti Qur‘oni karimning Yusuf surasi asosida shakllangan bo‘lib, jamiyki qissa dostonlarning ilhom manbai mazkur suradir. Ushbu qissa Qur‘onda “ahsan ul-qisas” (qissalarning eng go‘zali) deya ta’riflanadi. Xalq og‘zaki ijodi talqinlarida qahramonlarning xatti-harakatlari xalqning axloqiy tasavvurlari, diniy e’tiqodi va ma‘naviy qarashlari bilan uyg‘unlashgan. Xalq rivoyatlarida Yusuf go‘zallikning, poklikning, sabr va matonatning ideal timsoli bo‘lib namoyon qilinadi.

Yozma adabiyotda talqinlar turlicha bayon etilgan. Xususan Rabg'uziyda Yaqub alayhissalomning olti xotini bor deya Shavsha, Zaura, Sunbula, Qamar, Habiba, Rahil onalarimiz keltirilgan. Ulardan esa o'n ikki o'g'il ya'ni har birlaridan ikkitadan o'g'il dunyoga kelgani bayon qilingan. Yusuf va uning ukasi kichiklik paytlarida onasidan erta vafot etdilar, shu boisdan bo'lsa kerak otasining mehri ularga o'zgacha edi, ayniqsa Yusufga. Yusuf yetti yoshlik paytida bir tush ko'radi: Yusuf va uning birodarlari birgalashib sahroga chiqadilar, har birlari tayoqlarni yerga suqadilar, tayoqlar ko'karadi. Lekin ko'p o'tmay Yusufni niholidan tashqari qolgan hammaniki uzoq yashamaydi. Yusufniki ko'karadi, gullaydi, osmon qadar yuksaladi. Shunda birodarlariniki esa bu tayoqqa sajda qiladi. Bu tushni eshitgan birodarlarining qalbida Yusufga nisbatan yovuzlik uyg'onadi. Ikkinchi kecha yana tush ko'radi. Bu tush shunday edi: o'n bir yulduz, quyosh, oy yerga tushib, Yusufga sajda qiladi, Yusuf esa bu tushni otasiga so'ylab beradi. Otasi bu tushni xayrli ekanligini aytib, birodarlariga zinhor so'zlamasligini tayinlaydi.

Keling endi qissaning shu qismigacha bo'lgan joyni Qur'oni Karim oyatlari bilan qiyoslasak, Qur'onda Ya'qub alayhissalomning to'rt xotini bo'lgani, to'ng'ich ayoli, o'z tog'asining qizi bo'lmish Laya va undan olti o'g'il, Zulfa va Balxa ismli ikki cho'rilaridan to'rt o'g'il, Laya vafotidan so'ng uning Rohil ismli singlisiga uylanishlari va undan esa Yusuf va uning ukasi Binyamin dunyoga kelgani bayon qilinadi. Jami bo'lib o'n ikki o'g'illari bo'ladi. Keltirilishicha Yusuf alayhissalom bir tush ko'radilar. Mazkur tushda: Yusufga o'n bir yulduz, oy va quyosh ta'zim qilayotgan edi. Bu tushni otasiga aytadi va otasi birodarlariga aytmalikni tayinlaydi.

Endi esa Tavrotdagi Yusuf qissasiga to'xtalsak: Yaqub payg'ambarning o'n ikkita o'g'li bo'lib, eng suyuqlisi Yusuf edi. Akalari esa Yusufga hasad qilishardi. Kunlardan bir kun Yusuf tush ko'radi, bu payt u o'n yetti yoshda edi. Tushini esa akalariga gapirib beradi. Tushi esa shunday: ekinzorda bog'lam bog'layotgani, Yusufniki tik turgani, akalariniki esa bog'lamiga ta'zim qilayotgan edi. Yusuf yana bir tush ko'radi: tushida oy, quyosh va o'n bir yulduz unga ta'zim qilayotgan edi. Bu tushdan ham akalari beaxabar qolmaydilar.

Injilda esa Yusuf haqida ma'lumot kam uchraydi. Misr hokimi va Zulayho haqida esa umuman yo'q desak mubolag'a bo'lmaydi. Iso Masihning muridlariga bag'ishlangan Injilning "Aziz havoriylar faoliyati" nomli keyingi kitobida Yusufning qul qilib sotilishi, uning Misrda shon-shuhrat topishi va qahatchilik haqida qisqacha hikoya qilinadi.

Yuqorida ko'rib turganimizdek to'rt kitobda to'rt xil qarash mavjud. Birida Yaqub payg'ambar xotini oltita desa, birida to'rtta deyilgan, tush ko'rish yoshi ham har xil. Hattoki Yusuf payg'ambar kimni qo'lida tarbiya qilingani ham har xil. Xulosa qiladigan bo'lsak, Yusuf tushini to'rt va olti yoshlar oralig'ida ko'rgan bo'ladi. Onasi

esa Rohila onamizdir , onasidan erta yetim qolib farzand ko'rmagan ammasinngi qo'lida tarbiya topadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur'oni Karim (tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). - Toshkent: Yozuvchi.1991.
2. Safarova H. Hazrati Yusuf - go'zallik timsoli. - Toshkent : Islom universiteti, 2003.
3. Nasimxon Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi (eng qadimgi davrlardan XVasr birinchi yarmigacha). T.:''Sano- standart '' 2017.
4. Nosuriddin Rabg'uziy . ''Qisas Rabg'uziy'' 2-kitob. ''Yozuvchi'' nashriyoti , 1991.
5. Islom Abdug'aniyevich Karimov. Olloh qalbimizda , yuragimizda. 5-bet.